TALABALAR PEDAGOGIK AMALIYOTINI TIZIMLI TAHLILI

Bekmurodov S.E.,
GDPI talabalar amaliyoti bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya: tizimli tahlil asosida ishlab chiqarish amaliyoti, malaka amaliyoti, samarali tashkil qilinishi o‘quv-ishlab chiqarish ishlari, tashkilotlar, muassasalar, o‘quv-ishlab chiqarish amaliyoti tahlili bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: tizimli tahlil, ishlab chiqarish amaliyoti, malaka amaliyoti, tashkilotlar, muassasalar.

Аннотация: на основе системного анализа представлен анализ производственной практики, квалификационной практики, эффективной организации учебно-производственной работы, организаций, учреждений, учебно-производственной практики.

Ключевые слова: системный анализ, производственная практика, квалификационная практика, организации, учреждения.

Abstract: based on a systematic analysis, the analysis of production practice, qualification practice, effective organization of educational and production work, organizations, institutions, and educational and production practice is presented.

Keywords: systematic analysis, production practice, qualification practice, organizations, institutions.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalar malakaviy amaliyoti jarayonini tizimli tashkil etishning metodik tuzilmasi mazkur jarayonning tarkibiy qismlari o‘rtasida ichki tartiblarning o‘rnatilishini ierarxik darajalarda aks ettirgan. Biroq biz bu masalaning mohiyatini boshqa, ya’ni malakaviy amaliyot jarayoni bilan uning mazmuni o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik nuqtai nazaridan qarab chiqamiz. Ma’lumki, bir-biriga bog‘langanlik o‘zaro bog‘liqlik deganda tomonlarning biri ikkinchisiga bog‘liqligi yoki tomonlar orasida biri ikkinchisiz bo‘lmaydigan aloqadorlik tushuniladi.

Malakaviy amaliyot jarayoni bilan uning mazmuni o‘rtasida xuddi shunday aloqadorlik mavjud. Bu aloqadorlikning mohiyatini ochib berish malakaviy amaliyot jarayonini tashkil etishning amaldagi metodik tuzilmasini yanada takomillashtirishga, ya’ni metodik innovatsiyalar ishlab chiqilishi va amaliyotga tatbiq etilishiga zamin tayyorlaydi.

Shuningdek, oliy ta’lim metodikasida ham bu masalaga yetarlicha e’tibor qaratilmagan, tegishli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmagan. Oqibatda oliy ta’lim muassasalarida yaxlit malakaviy amaliyot jarayoni ko‘pincha pala-partish, muayyan tizimsiz, samarasiz tashkil etilishiga yo‘l qo‘yilgan. Bu esa bitiruvchilar - bo‘lg‘usi mutaxassislarda kasbiy mahorat asoslari standart talablari darajasida shakllanmasligiga sabab bo‘lmoqda. Biz mazkur kamchiliklarni bartaraf qilish uchun malakaviy amaliyot jarayonini tashkil etishning amaldagi metodik tuzilmasini

takomillashtirishga harakat qildiq. Shu maqsadda malakaviy amaliyot jarayonini tizimli yondashuv asosida ikki jihatdan tahlil qildik:

1) malakaviy amaliyot mazmunining tizimli tahlili;

2) malakaviy amaliyot jarayonining tizimli tahlili. Birinchi navbatda, malakaviy amaliyot mazmunining tizimli tahlili natijalarini keltiramiz.

1. Malakaviy amaliyot mazmuni quyidagi tarkibiy qismlarni (turlarni) o‘z ichiga oladi:

2. Amaliy-laboratoriya ishlari mazmuni.

3. O‘quv amaliyoti mazmuni.

4. Ishlab chiqarish (texnologik) amaliyoti mazmuni.

5. Bitiruv-malakaviy (diplom oldi) amaliyoti mazmuni. Malakaviy amaliyotning mazmuniy tarkibiy qismlari, ya’ni turlarining har biri alohida tizimli tahlil qilinsa, ular bir-biri bilan bog‘langan va o‘zaro shartlangan o‘ziga xos tarkibiy qismlar majmuidan iborat ekanligi aniqlanadi.

Xususan: Amaliy-laboratoriya ishlari quyidagi mazmuniy tarkibiy qismlar majmuini o‘z ichiga oladi:

1) o‘quv-tajriba ishlarini aniq rejalashtirish;

2) maxsus o‘quv laboratoriyalarini jihozlash va ishlarni bajarishga to‘liq tayyorlash;

3) laboratoriyalarda bajariladigan o‘quv-tajriba texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

4) o‘quv-tajriba texnologiyalarini amalga oshirish jarayonida talabalarda boshlang‘ich kasbiy ko‘nikmalar shakllanishini joriy, oraliq va yakuniy nazorat qilib borish;

5) mazkur jarayonlarga metodik xizmat ko‘rsatishni ta’minlaydigan amaliy-laboratoriya ishlari metodikasini ishlab chiqish va joriy etish.

Ishlab chiqarish amaliyoti quyidagi mazmuniy tarkibiy qismlar majmuini o‘z ichiga oladi: 1) o‘quv-ishlab chiqarish ishlarini aniq rejalashtirish; 2) tayanch korxona, tashkilot yoki muassasalarni tanlash va ularni talabalarning ishlab chiqarish ishlarini bajarishga maxsus tayyorlash; 3) tayanch korxona, tashkilot va muassasalarda bajariladigan o‘quv-ishlab chiqarish texnologiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish; 4) o‘quv-ishlab chiqarish texnologiyalarini amalga oshirish jarayonida talabalarda tugal ko‘nikma shakllanishini joriy, oraliq va yakuniy nazorat qilib borish; 5) mazkur jarayonlarga metodik xizmat ko‘rsatishni ta’minlaydigan ishlab chiqarish amaliyoti metodikasini ishlab chiqish va joriy etish.

Tizimli tahlil asosida ishlab chiqarish amaliyoti bo‘yicha quyidagi metodik tamoyil vujudga keladi: ishlab chiqarish amaliyotining samaralt tashkil qilinishi o‘quv-ishlab chiqarish ishlari, tayanch korxonalar (tashkilotlar, muassasalar), o‘quv-ishlab chiqarish texnologiyalari, tugal ko‘nikm shakllanishini joriy, oraliq va yakuniy nazorat qilish, ishlab chiqarish amaliyoti metodikasi kabi tarkibiy qismlarga ajratishga, har bir tarkibiy qismning mazmuni va funksiyasini aniq belgilashga hamda ularning ijrosi to‘liq ta’minlanishiga bog‘liq.

Endi malakaviy amaliyot jarayonining tizimli tahlili natijalarini qarab chiqamiz. 2. Malakaviy amaliyot jarayoni quyidagi tarkibiy qismlarni (bosqichlarni) o‘z ichiga oladi: 1. Malakaviy amaliyot jarayonini rejalashtirish. 2. Malakaviy

amaliyot jarayonini amalga oshirishga tayyorgarlik ko‘rish. 3. Malakaviy amaliyot jarayonini amalga oshirish.

Malakaviy amaliyot jarayonini nazorat qilish. 5. Malakaviy amaliyot metodikasi Biz malakaviy amaliyot jarayonining tarkibiy qismlari, ya’ni uning har bir bosqichini alohida tizimli tahlil qilib, ular ham bir-biri bilan bog‘langan va o‘zaro shartlangan o‘ziga xos tarkibiy qismlar majmuidan iborat ekanligini aniqladik. Xususan: I. Malakaviy amaliyot jarayonini rejalashtirish mazkur jarayon mazmunining turlariga muvofiq quyidagi tarkibiy qismlar majmuini o‘z ichiga oladi: 1) amaliy-laboratoriya ishlarida o‘quv-tajriba ishlarini rejalashtirish; 2) o‘quv amaliyotida o‘quv-amaliy ishlarni rejalashtirish; 3) ishlab chiqarish (texnologik) amaliyotida o‘quv-ishlab chiqarish ishlarini rejalashtirish; 4) bitiruv-malakaviy (diplom oldi) amaliyotida bitiruv-malakaviy (diplom) ishlarni rejalashtirish.

Tizimli tahlil asosida malakaviy amaliyot jarayonini rejalashtirish bo‘yicha quyidagi metodik tamoyil (qoida) vujudga keladi: malakaviy amaliyot jarayonini rejalashtirishning samarali tashkil qilinishi uni o‘quv-tajriba ishlarini rejalashtirish, o‘quv-amaliy ishlarni rejalashtirish, o‘quv-ishlab chiqarish ishlarini rejalashtirish, bitiruv-malakaviy (diplom) ishlarini rejalashtirish kabi tarkibiy qismlarga ajratishga, har bir tarkibiy qism rejasini aniq ishlab chiqish va umumlashtirishga hamda ijrosining to‘liq ta’minlanishiga bog‘liq.

Malakaviy amaliyot jarayonini nazorat qilish mazkur jarayon mazmunining turlariga muvofiq quyidagi tarkibiy qismlar majmuini o‘z ichiga oladi:

1) amaliy-laboratoriya ishlarida o‘quv-tajriba texnologiyalarini amalga oshirishda talabalarda shakllanadigan boshlang‘ich ko‘nikmalarni joriy, oraliq va yakuniy nazorat qilib borish;

2) o‘quv amaliyotida o‘quv-amaliy texnologiyalarni amalga oshirishda talabalarda shakllanadigan oraliq ko‘nikmalarni joriy, oraliq va yakuniy nazorat qilib borish;

3) ishlab chiqarish (texnologik) amaliyotida o‘quv-ishlab chiqarish texnologiyalarini amalga oshirishda talabalarda shakllanadigan tugal ko‘nikmalarni joriy, oraliq va yakuniy nazorat qilib borish;

4) bitiruv-malakaviy amaliyotida tadqiqiy-sinov texnologiyalarini amalga oshirishda talabalarda shakllanadigan boshlang‘ich kasbiy ko‘nikmalarni joriy, oraliq va yakuniy nazorat qilib borish.